



## XALQ DEPUTATLARI BAG‘DOD TUMANI KENGASHI QARORI

Bag‘dod tumani 20733571, Mustaqillik ko‘chasi, 15-uy. Tel:(73) 479-27-66

2022 - yil 17 - aprel

VI-44-48-11-152-K/22

Bag‘dod tumani hokimligi

### **Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish maqsadida Xalq deputatlari Bag‘dod tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

#### 1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori asosida joriy yilning 1-fevralidan 2-apreligacha qadar o‘tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo‘yicha tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri J.Sadriddinovning axboroti;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi “Tuman va shahar byudjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllanirilgan tadbirlarga yo‘naltirish jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini yanada qo‘llab-quvatlash to‘g‘risida”gi PQ-197-sonli qaroriga asosan Bag‘dod tumaniga har biri 2

ming tadan ortiq ovoz to'plagan, lekin g'olib bo'lmagan **2 ta** takliflarni moliyalashtirish uchun **1 mlrd 546 mln.so'm** qo'shimcha mablag' ajratilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosalariga asosan, Xalq deputatlari Bag'dod tuman Kengashining 2022-yil 21-fevral kungi VI-41-27-11-152-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi "Tuman va shahar byudjetlari mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllanirilgan tadbirlarga yo'naltirish jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini yanada qo'llab-quvatlash to'g'risida"gi PQ-197-sonli qaroridan kelib chiqib, "**ENG KO'P**" ovoz olgan hamda "Ochiq byudjet" axorot portalida avtomatik tarzda g'olib sifatida tanlab olingan takliflar "g'olib" deb topilsin.

Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo'yicha "Manzilliy ro'yxat" ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda,

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko'payishi yoki loyihaning o'zgartirilishi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaslik;

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan tuman byudjeti mablag'lari tuman hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlangan mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlanishi belgilab qo'yilsin.

3. Tasdiqlangan Manzilliy ro'yxat asosida:

Tuman hokimligi Moliya bo'limi (J.Sadriddinov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag' manbaasi bo'yicha (4017) "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" maxsus hisob raqamlari ochilishini;

tuman hokimligi bosh hisobchisi (U.Karimov) Jamg'arma mablag'lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag'lar yo'naltirilishini;

buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag'larni loyiha-smeta xujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi ishchi guruhga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi va tuman moliya bo‘limi (J.Sadriddinov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va “g‘olib” deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni “Ochiq byudjet” portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta’minlasin.

5. Tuman byudjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag‘larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga ishchi komissiya a’zolari shaxsan javobgarligi eslatib o‘tilsin.

6. Mazkur bayon ijrosini ta’minlash va nazorat qilish komissiya a’zolari zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**Y.A.Xusainov**

Xalq deputatlari Bag'dod tuman Kengashining  
2022 yil 17 apreldagi  
VI-44-48-11-152-K/22-son qaroriga  
1-ilova

**Bag'dod tuman bo'yicha 2022 yil "Tashabbusli byudjet" jarayonining 1-bosqichi natijalariga asosan  
jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha**

**MANZILLI RO'YXAT**

№	G'olib taklif ma'lumotlari			Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Xaqiqatda jami ajratilgan mablag'	Shundan			Buyurtmachi etib belgilangan tashkilot
	Taklif ID raqami	Qisqacha mazmuni	To'plagan ovozlari soni			Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Mahalliy byudjetning qo'shimcha manbaalari hisobidan	Byudjet parametri doirasida	
		<b>Bag'dod tumani jami</b>		<b>6 934 860</b>	<b>6 934 860</b>	<b>6 934 860</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	
1	1350400112	Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 1-sonli maktabni joriy tamirlash	8344	902 000	902 000	902 000			Tuman xalq ta'limi bo'limi
2	1350400211	Bolg'oli qishlog'iga ichimlik suv qazib chiqarish va axolini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash.	7263	500 000	500 000	500 000			Tuman hokimligi
3	1350400028	Bag'dod tumanining markazida joylashgan 17-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich o'quv binosini joriy ta'mirlash	4979	900 000	900 000	900 000			Tuman xalq ta'limi bo'limi

4	1350400195	Farg'ona viloyati, Bag'dod tumani 26-umumiy o'rta ta'lim maktabini ta'mirlash	3856	766 860	766 860	766 860			Tuman xalq ta'limi bo'limi
5	1350400034	Farg'ona viloyati Bag'dod tumani XTB 2-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi(qayta ta'mirlash)	3151	900 000	900 000	900 000			Tuman xalq ta'limi bo'limi
6	1350400205	Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 37-umumiy orta ta'lim maktabini tamirlash va jixozlash.	2415	820 000	820 000	820 000			Tuman xalq ta'limi bo'limi
7	1350400085	Bag'dod tumani Qorako'l mfy (Qorako'l, Begvachcha va Qo'rg'oncha) hududida ichimlik suvi bilan ta'minlash. Ushbu hududa joylashgan yangi maxallalarda ichimlik suvi bilan tam'inlanmagan. Suv quduqlari 3 ta Suv saqlagich va quvurlar masalasi	2297	600 000	600 000	600 000			Tuman hokimligi

8	1350400018	Farg'ona Viloyati Bag'dod tumani XTBga qarashli 30-umumiy o'rta maktabimizda hozirgi vaqtda 870 nafardan ortiqroq o'quvchilar ta'lim olib kelmoqda. Maktabimizning mehnat xonasi talab darajasiga to'g'ri kelmay qolganligi sababli yangi zamon talablariga mos keladigan o'quv va amaliy usta xona qurush uchun, o'quvchi va o'qituvchilar uchun oshxona binosi qurush hamda maktab hududida toza ichimlik suvi yo'qligi sababli ichimlik suvuni yangittan qayta rekonstruksiyalash uchun, "Ochiq Budjet" mablag'laridan yo'naltirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi	2257	920 000	920 000	920 000			Tuman xalq ta'limi bo'limi
9	1350400101	Samandarak MFY Hunarmandlar ko'chasiga 1 dona tik quduq qazish. 1 dona 25m3 suv minorasi o'rnatish. 1 dona transformator o'rnatish	2216	626 000	626 000	626 000			Tuman hokimligi